IX. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 092 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning soni 52 646 taga yetdi.

2022- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 47 818 tani va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,9 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 5 420 tasi (105,5 %) Zangiota, 4 332 tasi (105,8 %) Qibray, 3 526 tasi (107,3 %) Toshkent tumanlari hamda 2 726 tasi (113,0 %) Chirchiq, 2 634 tasi (107,8 %) Angren shaharlari hissalariga to‘g‘ri keladi.



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, *%da*



2022- yil yanvar-sentabr oylariga viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 5 092 tani tashkil qilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1191 taga yoki 81,1 %ga kamaygan..

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni *(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)*



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida o‘sish dinamikasi *(yanvar-sentabr oylarida, %da)*



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2022- yil yanvar-sentabr holatiga (jamiga nisbatan %da)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan subyektlarning 36,6 %i), sanoatda (19,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (12,9 %) hamda yashah va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (8,1 %) tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 47,0 %i (2021- yil yanvar-sentabrda 47,8 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 11 799,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 17,5 %) yoki 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 95,9 % tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 8034,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur’ati 101,1 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 90,6 %) tashkil qildi;

- 12 683,6 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar hajmining 55,1 %i) o‘zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,8 %ni tashkil qildi;

- 6 732,5 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 79,7 %i) bajarildi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,1 %ga ko‘paydi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 %ga oshgan (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 57,8 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 0,8 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 97,8 %) ko‘paydi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 66,4 % yoki 14 314,6 mlrd. so‘m (o‘sish 103,4 %) hamda xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 69,6 % yoki 12 891,4 mlrd. so‘mi (o‘sish 109,0 %) shakllantirildi;

- 392,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 25,9 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 1184,6 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 48,0 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, *%da*

	sanoat	*qurilish*	*xizmat*	*savdo*	*investitsiya*
Viloyat bo‘yicha	**17,5**	**79,7**	**69,6**	**66,4**	**55,1**
shaharlar:					
Nurafshon	25,7	100,0	30,4	27,4	29,4
Olmaliq	1,9	17,2	66,2	82,0	12,0
Angren	17,8	66,0	64,8	57,8	65,6
Bekobod	2,2	91,9	73,1	74,8	22,0
Ohangaron	29,8	97,0	76,1	88,5	76,9
Chirchiq	21,6	94,9	69,9	65,5	47,0
Yangiyo‘l	50,9	78,6	84,3	68,0	88,1
tumanlar:					
Oqqo‘rg‘on	23,9	99,6	85,1	89,0	59,0
Ohangaron	10,1	98,7	74,5	97,5	88,4
Bekobod	45,0	100,0	78,8	80,4	47,6
Bo‘stonliq	16,4	90,9	55,3	51,8	61,0
Bo‘ka	34,7	100,0	85,7	80,9	70,6
Zangiota	78,9	87,9	54,3	53,9	66,9
Qibray	19,5	85,1	85,7	75,5	53,4
Quyi Chirchiq	66,6	100,0	58,2	76,3	92,2
Parkent	89,7	100,0	79,3	88,0	60,9
Piskent	40,8	100,0	73,5	67,6	79,7
O‘rta Chirchiq	42,9	99,5	74,1	89,5	83,5
Chinoz	38,9	100,0	68,6	67,4	84,3
Yuqori Chirchiq	64,2	90,0	76,9	91,9	73,4
Toshkent	73,4	100,0	81,1	57,4	93,1
Yangiyo‘l	43,6	77,2	81,2	90,1	60,2